Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 342

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

JAMIYATNING TIZIMLI IJTIMOIY HODISASI SIFATIDA HUQUQIY NIGILIZM (FALSAFIY-HUQUQIY TAHLIL)

Dilfuza Baxromali qizi Qushnazarova*

Farg‘ona shaxar 41-maktab internat o‘qituvchisi

✉ baxromalimovlonov19596082@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada huquqiy nigilizm individual-psixologik nuqson emas, balki tizimli ijtimoiy hodisa va ijtimoiy ong deformatsiyasi sifatida falsafiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda F. Nitsshening nigilizm tashxisi, I. Kantning kategorik imperativi va Abu Rayhon Beruniyning adolat hamda tenglik haqidagi qarashlari qiyosiy jadval asosida taqqoslangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson qadriyatlarining qonuniy normalarga transformatsiyalanishi va bu jarayonning huquqiy nigilizmni bartaraf etishdagi roli Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma’ruzalari asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

huquqiy nigilizm, huquqiy ong, ijtimoiy hodisa, Fridrix Nitsshe, Immanuil Kant, Abu Rayhon Beruniy, Konstitutsiya, inson qadri, adolat, huquqiy madaniyat.

DOI: 10.5281/zenodo.23885980

KIRISH

Zamonaviy dunyoda huquqiy davlatchilikni barpo etish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va qonun ustuvorligini ta’minlash demokratik islohotlarning bosh mezoni hisoblanadi. Biroq ushbu jarayonda davlat va jamiyat institutsional rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi eng xavfli ijtimoiy destruktiv omillardan biri — bu huquqiy nigilizmdir. Uzoq yillar davomida yuridik fanlarda huquqiy nigilizmga shunchaki fuqarolarning huquqiy savodsizligi yoki ayrim shaxslarning qonunni bilmasligi natijasida kelib chiqadigan individual psixologik nuqson sifatida qarab kelindi. Bugungi kunda ushbu yondashuv o‘z dolzarbligini yo‘qotdi. Huquqiy nigilizm — bu shunchaki shaxsiy qarash emas, balki jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy inqirozlar ta’sirida shakllanadigan, ommaviy xususiyatga ega bo‘lgan tizimli ijtimoiy hodisadir.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik islohotlar, xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi jamiyatda ”Inson — jamiyat — davlat” paradigmasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: «Qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta’minlash — biz barpo etayotgan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng asosiy shartidir». [2] Biroq jamiyat a’zolari ongida asrlar davomida shakllanishi yashirin nigilistik kayfiyatlarni, qonunlarga nisbatan ishonchsizlikni faqatgina ma’muriy-buyruqbozlik yoki yangi normativ hujjatlar qabul qilish yo‘li bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Bu muammo chuqur falsafiy va huquqiy tahlilni, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining aksiologik (qadriyatlar) qarashlarini konseptual o‘rganishni hamda ularni zamonaviy qonunchilikka tatbiq etishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda qiyosiy-falsafiy, tizimli va normativ-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Huquqiy nigilizmning ijtimoiy-falsafiy tabiati va tizimlilik xususiyatlari

Ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo‘lgan huquqiy ong ijtimoiy borliqning bevosita aksi hisoblanadi. Falsafiy nuqtai nazardan, agar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy adolat mezonlari buzilsa va davlat institutlari fuqaro himoyasini ta’minlay olmasa, ijtimoiy ong deformatsiyaga uchraydi. Ushbu deformatsiyaning eng xavfli shakli huquqiy nigilizmdir (lotincha nihil — hech narsa, inkor etish). Huquqiy nigilizmning tizimli ijtimoiy hodisa ekanligini quyidagi omillar isbotlaydi:

Ommaviylik xususiyati. Nigilizm ma’lum bir shaxsgagina xos bo‘lmay, balki ijtimoiy qatlamlar, guruhlar va butun bir jamiyat kayfiyatini qamrab oladi. Odamlar kundalik hayotda qonuniy yo‘l qolib, muammolarni ”norasmiy” hal qilishga ommaviy ravishda odatlanadilar.

Institutsional ildizlar. Nigilizm o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. U davlat organlarining qonun buzishi, korrupsiyaning tizimli xususiyati va byurokratiya natijasida fuqarolar ongida ildiz otadi.

Anomiya holati. Ijtimoiy sotsiologiyada (E. Dyurkgeym ta’limoti) qonunlar va axloqiy normalar jamiyat tomonidan hurmat qilinmay qo‘yilgan holat ”anomiya” (qonunsizlik, tartibsizlik) deb ataladi. [7] Huquqiy nigilizm jamiyatni aynan anomiya bosqichiga yetaklaydi. Jamiyatda qonun ustuvorligining susayishi davlat va fuqaro o‘rtasidagi sog‘lom ijtimoiy shartnomani vayron qiladi. Insonlar davlat chiqargan qonunlarni o‘zlarini himoya qiluvchi vosita emas, balki faqatgina jazolovchi va cheklovchi ”sovuq mexanizm” sifatida ko‘ra boshlaydilar.

Qadriyatlar inqirozi: F. Nitsshe, I. Kant va Abu Rayhon Beruniy qarashlarining qiyosiy-falsafiy tahlili

Shaxsning qonunga ongli ravishda bo‘ysunishi yoki uni inkor etishi zamirida axloqiy va aksiologik qadriyatlar yotadi. Dunyo falsafasi tarixida ushbu masalaga turli davr va makon olimlari fundamental yondashganlar. Bu bahsda G‘arb atipik nigilizmi tashxischisi Fridrix Nitsshe, deontologik axloq asoschisi Immanuil Kant va Sharq qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning qarashlari bir-birini inkor etuvchi va ayni paytda to‘ldiruvchi konsepsiyalarni tashkil etadi.

Nitsshe davlatni shaxs ijodkorligi va irodasini sindiruvchi ”sovuq mahluq” sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Kant qonunga bo‘ysunishni insonning oliy axloqiy burchi deb baholaydi. Beruniy esa bu ikki qarash o‘rtasida muvozanat o‘rnatib, qonunning kuchi va fuqaroning unga ongli bo‘ysunishi faqat va faqat ”Adolat va Tenglik” mezoniga asoslanishi shartligini isbotlaydi.

Ushbu faylasuflarning qadriyatlar inqirozi va qonunga munosabat bo‘yicha qarashlarini quyidagi tizimli solishtirish jadvalida taqqoslash orqali ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval. F. Nitsshe, I. Kant va Abu Rayhon Beruniy qarashlarining qiyosiy tahlili

Tanqidiy-tahliliy mezonlar	Fridrix Nitsshe (XIX asr, Nemis falsafasi) [4]	Immanuil Kant (XVIII asr, Nemis klassikasi) [5]	Abu Rayhon Beruniy (XI asr, Sharq Renessansi) [6]
Davlat va Qonunning mohiyati	Davlat — shaxs individualligini sindiruvchi ”sovuq mahluq”. Qonunlar esa kuchlilarni jilovlash uchun zaiflar (omma) tomonidan o‘ylab topilgan vositadir.	Davlat — umumiy adolat va huquqiy tartibni ta’minlovchi oliy institut. Qonun — inson erkinligi va xavfsizligining kafolatidir.	Davlat va Qonun — jamiyatni halokatdan, kuchlilarning zaiflarni ezishidan qutqaruvchi, ijtimoiy ehtiyoj asosida tug‘ilgan zaruratdir.
Qonunga bo‘ysunishning ichki sababi	”Qullar axloqi” (Sklavenmoral) natijasi. Ongli inson qonunga faqat tashqi o‘yin qoidasi sifatida, ichki mustaqilligini saqlagan holda murosa yuzasidan bo‘ysunadi.	Ichki axloqiy burch va mas’uliyat (Kategorik imperativ). Inson jazodan qo‘rqib emas, balki axloqiy burchi bo‘lgani uchun qonunga amal qiladi.	Qonunning adolatliligi va insonparvarligini anglash. Fuqaro davlatning adolatini ko‘rganda unga ichki ishonch va vijdon bilan bo‘ysunadi.
Qadriyatlar inqirozi (Nigilizm) tashxisi	Oliy qadriyatlarning emirilishi (”Xudoning o‘limi”). Odamlar an’naviy axloqdan uzoqlashib, davlat va qonunlarni soxta ”but” (sanam) qilib olganlar.	Insonning o‘z aqlidan mustaqil foydalana olmasligi. Axloqiy qonunlarni shaxsiy manfaat va nafsdan pastroq qo‘yish inqirozi.	Jamiyatda tenglikning buzilishi, hukmdorlarning adolatsizligi va qonunlarning hamma uchun bir xil ishlamasligi natijasida kelib chiqadigan inqiroz.
Inqirozdan chiqish yo‘li (Yechim)	”Qadriyatlarni qayta baholash” (Umwertung aller Werte). Shaxs davlat mafkurasidan baland ko‘tarilib, o‘z axloqiy qonuniyatlariga ega ”Oliy inson” (Übermensch) bo‘lishi kerak.	Insonning ma’rifatlanishi. Shaxs o‘z xulq-atvorini shunday shakllantirishi kerakki, uning xatti-harakati umuminsoniy qonunga aylana olsin.	Davlat boshqaruvida ilm va adolatni uyg‘unlashtirish. Qonunlarni jamiyat ehtiyojlariga moslash, qonun oldida ham shoh, ham gadoni teng qo‘yish.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Nitsshening huquqiy nigilizmni ”davlatning soxtaligiga nisbatan isyon” sifatida ko‘rishi, Kantning uni ”axloqiy mas’uliyatsizlik” deb baholashi va Beruniyning uni ”adolatsizlik mahsuli” sifatida tashxis qilishi zamonaviy huquqiy ong deformatsiyalarini o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qadriyatlarning qonunga transformatsiyalanishi

Jamiyatdagi huquqiy nigilizmni bartaraf etishning eng oliy siyosiy-huquqiy yo‘li — bu xalq ishonadigan, uning orzu-umidlari va qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan Bosh Qonunni yaratishdir. O‘zbekistonda o‘tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya aynan inson qadri, huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Bu esa Beruniy va Kant ilgari surgan ”Adolat va Burch” tizimining qonunchilikdagi ifodasidir. Yangi Konstitutsiyada inson qadriyatlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonun normalariga aylanishi quyidagi moddalarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

1-modda: «O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat» [1]. Ushbu modda davlatning tabiatini belgilab beradi. Davlatning ”huquqiy va ijtimoiy” deb e’lon qilinishi Nitsshe aytgan ”sovuq, begona mahluq” konsepsiyasini parchalaydi. Davlat endi o‘z fuqarosiga xizmat qiluvchi, uning ijtimoiy muhofazasini ta’minlovchi institutga aylanadi.

15-modda: «O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi so‘zsiz tan olinadi. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi» [1]. Bu norma Kantning Kategorik imperativi bilan uyg‘undir. Qonunning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarda ”qonunlar baribir ishlamaydi, ular faqat qog‘ozda” degan nigilistik qarashni sindiradi.

20-modda: «Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik (proporsionallik) prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak» [1]. Bu modda huquqiy nigilizmga qarshi eng

katta yuridik qalqondir. Chunki ilgari nigilizm davlat organlarining o‘zboshimchaligidan tug‘ilar edi. Endilikda davlat idorolarining faoliyati mazmuni inson huquqlari bilan cheklanadi.

21-modda: «Insonning qadri va qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas» [1]. Bu konseptual norma Beruniyning tenglik va insonparvarlik haqidagi qarashlarining oliy huquqiy ko‘rinishidir. Inson qadrining daxlsizligi davlat manfaatlaridan yuqori qo‘yilishi jamiyatda huquqiy ongning keskin yuksalishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz nutqlarida qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari

O‘zbekistonda huquqiy nigilizmni tizimli ravishda bartaraf etish va aholining huquqiy ongini yuksaltirish masalasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi va strategiyasining markazida turibdi. Davlat rahbari o‘z ma’ruzalarida qonun ustuvorligiga erishish uchun avvalo mansabdor shaxslarning o‘zlari qonunga bo‘ysunishlari va fuqarolarda adolatga ishonch uyg‘otishlari shartligini tinimsiz ta’kidlab kelmoqda. Jumladan: «Agar sud mustaqil bo‘lmasa, qonun ustuvorligi ta’minlanmaydi. Qonun ustuvor bo‘lmagan jamiyatda esa hech qachon adolat bo‘lmaydi, odamlarda davlatga va kelajakka ishonch yo‘qoladi» [3]. Bu fikr Abu Rayhon Beruniyning ”qonun adolatsiz bo‘lsa, jamiyat vayron bo‘ladi” degan falsafiy xulosasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Shuningdek, davlat rahbari korrupsiya va byurokratiyaga chek qo‘yish orqali huquqiy ongni yuksaltirish haqida gapirganda, quyidagi tizimli vazifani qo‘yadi: «Biz korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat huquq-tartibot organlarining kuchiga tayana olmaymiz. Buning uchun butun jamiyatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat — o‘ziga xos emlash (vaksina) paydo bo‘lishi kerak» [2]. Bu esa Konfutsiy va Kant aytgan ichki axloqiy tarbiyaning, ya’ni jazodan qo‘rqib emas, balki ichki ongli madaniyat tufayli qonunbuzarlikdan tiyilish psixologiyasining jamiyatda shakllanishi yaqqol ifodasi xisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etilishi borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev muhim konseptual fikrni ilgari surdi: «Yangilangan Konstitutsiyaning matni har bir fuqaroning, ayniqsa, yoshlarimizning qalbi va ongiga singib ketishi, ularning kundalik hayot qoidasiga aylanishi zarur. Odamlar qonun ularni himoya qilishini o‘z hayotida his etsin» [3]. Bu bayonot huquqiy nigilizmni maishiy va tizimli darajada yengishning bosh strategik yo‘nalishi hisoblanadi.

XULOSA

Huquqiy nigilizm va huquqiy ong muammosini falsafiy-huquqiy jihatdan tadqiq etish, shuningdek, Sharq va G‘arb olimlarining qarashlarini zamonaviy qonunchilik bilan qiyoslash quyidagi tizimli xulosalarga kelish imkonini beradi:

Huquqiy nigilizm — tizimli inqiroz mahsulidir. Uni faqatgina targ‘ibot-tashviqot yoki jazo choralarini kuchaytirish bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Buning uchun nigilizmni tug‘diruvchi ijtimoiy omillar — korrupsiya, qonun qo‘llashdagi ikki yoqlama standartlar va davlat organlarining o‘zboshimchaligi barham topishi shart.

Ongli bo‘ysunish — axloq va adolat muvozanatidir. I. Kantning burch falsafasi va Beruniyning adolat mezoni ko‘rsatadiki, fuqaro qonunni o‘zining ichki qadriyatlariga zid deb bilmasligi kerak. Buning uchun qonun ijodkorligi jarayonida xalqning milliy va umuminsoniy ma’naviy kodeksi inobatga olinishi lozim.

Yangi Konstitutsiya — huquqiy ong poydevori. O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ”Inson qadri”ning mutlaq daxlsiz deb e’lon qilinishi va davlat organlari faoliyatining mazmuni inson huquqlari bilan cheklanishi (20, 21-moddalar) F. Nitsshe qoralagan ”siyosiy totalitar mahluq” xavfini yo‘qqa chiqaradi va davlatni fuqaroning ishonchli sherigiga aylantiradi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar

Qonunlarning proporsionalligini nazorat qilish. Har bir qabul qilinayotgan qonunosti hujjati Konstitutsiyaning 20-moddasida belgilangan ”mutanosiblik” prinsipi asosida jiddiy ekspertizadan o‘tkazilishi, fuqarolarga ortiqcha maishiy yoki iqtisodiy qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak. Bu raqamli tizimlar xatoliklari tufayli yuzaga keladigan yangi ”raqamli nigilizm”ning oldini oladi.

Sud mustaqilligini to‘liq raqamlashtirish. Prezident Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan vazifalardan kelib chiqib, sud tizimini inson omilidan mutlaqo xoli qilish, ishlarni avtomatik taqsimlash va qarorlarni shaffof e’lon qilishni yanada kuchaytirish lozim. Bu odamlarda adolatga bo‘lgan institutsional ishonchni tiklaydi.

Huquqiy tarbiyani konseptual o‘zgartirish. Ta’lim tizimida huquq darslarini quruq qonun moddalarini yodlatishdan emas, balki Kant va Beruniy aytgan axloqiy mas’uliyat, inson qadri va umuminsoniy adolat tuyg‘ularini shakllantirishdan boshlash zarur. Odamlarda qonunga qo‘rquv emas, balki Ongli hurmat hissi tarbiyalanishi shart.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda). — Toshkent: «Adolat», 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2021. — 464 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiyaviy islohotlar va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha ma’ruza va nutqlari to‘plami. — Toshkent, 2022-2024.

4. Nitsshe F. Tak govoril Zaratustra. Rojdeniye tragedii. — M.: Muzika, 1990. (Friedrich Nietzsche. Also sprach Zarathustra).

5. Kant I. Kritika prakticheskogo razuma. — Sankt-Peterburg: Nauka, 1995. (Immanuel Kant. Kritik der praktischen Vernunft).

6. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchilar: O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. — Toshkent: Fan, 1957-1975.

7. Dyurkgeym E. O razdelenii obshestvennogo truda. Sotsiologiya obrazovaniya. — M.: Kanon, 1996. (Anomie konsepsiyasi tahlili).

8. Farobiy, Abu Nasr. Fozil odomlar shahri. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.